

“INSON HUQUQLARINING HIMOYA QILINISHI VA UNING TA’MINLANISHIDAGI MUAMMOLAR”

Ilmiy rahbar: Rafikova Muattar Ravshanovna

*Bojxona instituti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası boshlig‘i,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa fanlari
doktori(PhD), dotsent, podpolkovnik*

Abduhamidov Asadbek Ma’ruf o’g’li

*O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi huzuridagi
Bojxona Qo‘mitasining Bojxona instituti, Yurisprudensiya
yo‘nalishi 1 - kurs kursanti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada dunyoda inson huquqlarining ta’minlanish darajasi, xalqaro tashkilotlarning bu boradagi roli hamda mavjud muammolar tahlil qilinadi. Maqolada Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning inson huquqlari bo‘yicha ixtisoslashgan tashkilotlari, Yevropa Inson huquqlari sudi va boshqa xalqaro institutlarning inson huquqlarini himoya qilishdagi faoliyati yoritilgan. Shuningdek, ayrim mintaqalarda va davlatlarda inson huquqlarini ta’minlanishda uchrayotgan inson huquqlarining buzilishlari, ularning sabablari va bartaraf etish yo‘llari haqida fikrlar yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Inson huquqlari, ta’minlash darajasi, xalqaro tashkilotlar, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Yevropa Inson huquqlari sudi, xalqaro institutlar, buzilishlar, muammolar, bartaraf etish yo‘llari, global tendensiyalar, xavf-xatarlar, himoya mexanizmlari.*

Annotation: *This article analyzes the level of human rights protection around the world, the role of international organizations in this regard, and the existing problems in the field. The article highlights the activities of the United Nations and its specialized agencies on human rights, the European Court of Human Rights, and other international institutions in protecting human rights. It also discusses the state of human rights protection in certain regions and countries, as well as the violations that occur, their causes, and ways to eliminate them. In addition, the article presents analytical views on global trends in the field of human rights, emerging threats, and effective mechanisms for addressing them.*

Keywords: *Human rights, level of protection, international organizations, United Nations(UN), European Court of Human Rights, international institutions, violations, problems, solutions, global trends, threats, protection mechanisms.*

Kirish

Inson huquqlari tushunchasi har bir inson tug'ilgandan boshlab ega bo'lgan, individdan ajralmas va daxlsiz huquqlar to'plamini anglatadi. Ular insonlarning millati, irqi, jinsi, tili, dini, siyosiy e'tiqodi yoki boshqa ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar barcha insonlarga mutlaq teng ravishda taaluqlidir. Zamonaviy demokratik jamiyatlarda inson huquqlarining kafolatlanishi nafaqat huquqiy tizimning mustahkamligi, balki davlatlarning xalqaro majburiyatlarga sodiqligi va xalqaro hamjamiyat bilan hamkorligiga ham bog'liqdir.

Hozirgi kungacha inson huquqlari sohasida turli xil hujjatlar qabul qilingan. Xususan, "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt, "Iqtisodiy va ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt, "Inson huquqlari va umumjahon deklaratsiya" siva boshqa shu kabi hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular inson huquqlarini taminlashda asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning orasida 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari va umumjahon deklaratsiya"si inson huquqlarini himoya qilishning huquqiy poydevorini yaratdi. Ushbu hujjatni qabul qilish orqali fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, hamda madaniy huquqlar bir huquqiy matnda umumlashtirildi. Shundan so'ng xalqaro shartnomalar, protokollar va milliy qonunlar orqali inson huquqlarni ta'minlash tizimi shakllana boshladi.

Biroq, inson huquqlarini ta'minash amaliyotida turli muammolarga duch kelmoqda. Ular orasida qurolli mojarolar, siyosiy repressiyalar, ijtimoiy kamsitish, iqtisodiy tengsizlik, ayrim hududlarda sud va huquqni muhofaza qilish organlarining mustaqil emasligi kabi omillar bor. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi bilan shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi, internet erkinligi kabi yangi xavf-xatarlar paydo bo'lmoqda.

Xalqaro tashkilotlar – masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning inson huquqlari sohasidagi ixtisoslashgan idoralari – bu muammolarni bartaraf etishda muhim rol o'ynamoqda. Shuningdek, xalqaro va mintaqaviy sudlar, nodavlat tashkilotlar ham inson huquqlarining himoyasi mexanizmlarini rivojlantirishga hissa qo'shmoqda.

Shu sababli, ushbu maqolada inson huquqlarining ta'minlanish darajasi, xalqaro tashkilotlarning roli, shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Global tendensiyalar va yangi xavf-xatarlarning ko'rinishi ham alohida ko'rib chiqiladi. Maqolaning maqsadi – nazariy jihatdan aniqlik kiritish bilan birga, amaliy tavsiyalarni ilgari surish orqali inson huquqlarining milliy va xalqaro darajada yaxshiroq himoyalaniishiga hissa qo'shadi.

Asosiy qism

Inson huquqlari tushunchasi uzoq tarixiy jarayon natijasida shakllangan bo'lib, uning zamonaviy talqini asosan XX asrning o'rtalarida xalqaro hamjamiyat tomonidan mustahkam huquqiy asosga ega bo'ldi. Ikkinchi jahon urushi yillarida insoniyat boshidan

kechirgan dahshatli fojealar inson huquqlarini xalqaro darajada himoya qilish zarurligini yanada yaqqol ko'rsatdi. Aynan shu davrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tuzilishi inson huquqlarini xalqaro darajada kafolatlash yo'lidagi eng muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi - Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining uchinchi sessiyasida 217 A(III) rezolutsiyasi bilan qabul qilingan va BMTga a'zo barcha davlatlar uchun tavsiya qilingan. Ushbu hujjatning inson huquqlari sohasidagi ahamiyati shundaki, u barcha davlatlar uchun majburiy bo'lmasa-da, u inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni belgilab berdi va keyinchalik qabul qilingan ko'plab xalqaro shartnomalar va milliy konstitutsiyalar uchun asos bo'lib xizmat qildi [1].

Inson huquqlari – bu barcha insonlarning qadr-qimmatini tan oladigan va himoya qiladigan standartlar(me'zonlar) hisoblanadi. Inson huquqlari insonlarning jamiyatda bir-biri bilan qanday yashashini, shuningdek, ularning davlat bilan munosabatlarini va davlatning ular oldidagi majburiyatlarini tartibga soladi [2].

Hozirgi kunda barcha davlatlar inson huquqlarini ta'minlashni o'zining bosh vazifasi etib belgilagan va davlatlar konstitutsiyasining asosini ham aynan shu tashkil etadi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, inson huquqlarining buzilishi, ularning ta'minlanmasligi va kamsitish hollari turli davrlarda keng miqyosda kuzatilgan. Misol uchun ikkinchi jahon urushi yillarida Gitler va uning tarafdorlari o'zlarining jamiyatdagi ustun mavqeyidan foydalanib, fashizmga asoslangan qarashlari bilan kam sonli millatlarni va aholining jismonan va aqlan kuchsiz bo'lgan juda katta qismini qirib yuborgan va ularning mulkini tortib olgan. Mana shu va shunga o'xshash holatlarni inobatga olgan holda davlatlar va xalqaro tashkilotlar inson huquqlarini ta'minlashni va himoya qilishni o'zining asosiy maqsadi qilib olgan. Bizning vatanimiz bo'lgan O'zbekiston mana shu maqsadni bajarishda juda katta harakatlar amalga oshirmoqda. Xususan, inson huquqlari bo'yicha turli institutlar: Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), Bolalar Ombudsmani va Biznes Ombudsmani va boshqalar tashkil etilgan. Shuningdek, inson huquqlari bo'yicha turli qonun hujjatlari qabul qilinmoqda va ularni zamon rivojlangani sayin unga mos holatda takomillashtirilib, o'zgartirib borilmoqda. Vatanimiz shu bilan cheklanib qolmasdan, xalqaro miqyosda ham Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa tashkilotlar bilan inson huquqlari sohasida hamkorlikni amalga oshirmoqda.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi (IHYS, Strasburg sudi sifatida ham barchaga ma'lum) – Yevropa Kengashining xalqaro sudi bo'lib, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasini amalda qo'llaydi. Sud konvensiyaga a'zo bo'lgan davlatlarning yoki uning huquqiy bayonnomalarida keltirib o'tilgan bir yoki bir nechta inson huquqlari

buzilganligida arizalarni qabul qiladi va ko'rib chiqadi [3]. IHYS Yevropa davlatlarinig fuqarolari uchun xalqaro darajadagi so'ngi adolat manbai hisoblanadi. Agar shaxs o'z mamalakatidagi barcha sud bosqichlridan o'tsa-yu, baribir adolat topolmasa, u IHYSga murojaat qilishi mumkin. IHYS qarorlari nafaqat bitta ish bo'yicha, balki butun Yevropa miqyosida huquqiy standartlarni belgilab beradi. Davlatlar bu qarorlarni bajarishga majbur. Shu yo'l bilan: qiynoqlarga qarshi kurashish, adolatli sudlovni ta'minlash, so'z erkinligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, mulk huquqi, diskriminatsiyaga qarshi himoya kabi asosiy huquqlar mustahkamlanadi.

Yana muammolar haqida fikr yuritadigan bo'lsak, Afrikaning markaziy va g'arbiy mintaqalarida inson huquqlari buzilishlari jiddiy darajada davom etmoqda. So'ngi yillarda bu hududlarda inson huquqlari himoyachilari ustidan bosimlar, tahdidlar va yo'qolib qolish holatlar keng tarqalgan. Amnesty International tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, faollar, jurnalistlar va fuqarolik jamiyati vakillari o'z faoliyati tufayli nishonga olinmoqda. Shu bilan birga, Janubi-sharqiy Kongo Demokratik Respublikasida esa davom etayotgan qurolli to'qnashuvlar natijasida tinch aholiga ko'plab huquqbuzarliklar – noqonuniy o'ldirish, jinsiy zo'rovonlik va majburiy ko'chirish holatlari yuz bermoqda [4].

Bu buzilishlarning asosiy sabablari bir nechta omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, ixtilofli hududlarda faoliyat yuritayotgan qurolli guruhlar va doimiy xavfsizlik inqirozi inson huquqlarining muntazam buzilishiga olib kelmoqda. Ikkinchidan, davlat institutlarining zaifligi va adliya tizimining samarali ishlamasligi tufayli huquqbuzarlarga nisbatan javobgarlik ta'minlanmaydi. Bundan tashqari, tabiiy resurslar ustidan kurash, korrupsiya hamda ijtimoiy-iqtisodiy zaifliklar jamiyatda beqarorlikni kuchaytirib, inson huquqlariga bo'lgan hurmatni pasaytiradi.

Bunday holatlarni bartaraf etish uchun bir nechta muhim choralar ko'rilishi zarur. Eng avvalo, xavfsizlikni ta'minlash hamda qurolli guruhlar faoliyatini kamaytirish maqsadida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish lozim. Shu bilan birga, inson huquqlari buzilishlarini tergov qilishda mustaqil tekshiruvlarni yo'lga qo'yish va sud jarayonlarining ochiqqligini ta'minlash katta ahamiyatga ega. Mahalliy aholini o'z huquqlari va ularni himoya qilish usullari haqida xabardor qilish orqali ularning salohiyatini oshirish ham muhim omil hisoblanadi. Nihoyat, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish siyosatini kuchaytirish – ta'lim, sog'likni saqlash va bandlik imkoniyatlarini kengaytirish orqali zo'rvonlik va beqarorlikka qarshi kompleks yondashuvni ta'minlash mumkin.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, inson huquqlarini ta'minlash – bu nafaqat alohida davlatlarning ichki masalasi, balki butun insoniyatning umumiy vazifasidir. Bugungi globallashuv davrida inson huquqlari sohasida erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda yangi muammolar ham paydo bo'lmoqda. Ayniqsa qurolli mojarolar,

ijtimoiy tengsizlik, siyosiy repressiyalar, raqamli texnologiyalar sohasidagi xavf-xatarlarinsoin huquqlarini to'liq kafolatlash yo'lidagi jiddiy to'siqlar bo'lib qolmoqda.

Shunday sharoitda xalqaro tashkilotlarning, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Inson huquqlari sudi, Amnesty International, Human Rights Watch kabi institutlarning roli beqiyosdir. Ularning faoliyati inson huquqlarining buzilishiga qarshi kurashish, huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish hamda davlatlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan. Shu bilan birga, inson huquqlarini himoya qilishda milliy institutlarning – Ombudsman, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz va fuqarolik jamiyati tashkilotlarining ham o'rni tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston ham so'nggi yillarda inson huquqlari sohasida muhim islohatlarni amalga oshirmoqda. Xalqaro shartnomalarga qo'shilish, milliy qonunchilikni yangilash, fuqarolarning erkinliklarini ta'minlash va ularni himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Shu bilan birga, inson huquqlarini ta'minlashda uch asosiy yo'nalish muhim ahamiyatga ega:

1. Huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash – qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, sud tizimini mustaqil va adolatli qilish.

2. Ta'lim va xabardorlikni oshirish – aholining o'z huquqlari haqida bilimini kengaytirish, fuqarolik faoliyatini oshirish.

3. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish – xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, tajriba almashish va global muammolarga birgalikda yechim topish. [5]

Xulosa qilib aytganda, inson huquqlarini ta'minlash – bu tinimsiz davom etadigan jarayon bo'lib, har bir davlat, xalqaro tashkilot va har bir fuqaroning faol ishtirokini talab qiladi. Inson qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida tan olish, adolat va tenglik tamoyillariga amal qilish orqaligina barqaror, tinch va farovon jamiyatni barpo etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 10-sinf, Davlat va huquq asoslari. V.A. Kostetskiy, 2017-yil
2. 10-sinf, Davlat va huquq asoslari. H.Tuychiyeva, A.Hakimov, O.Abdug'aniyev. O.Shernayev. M.Ahmedova. Toshkent: Respublika ta'lim markazi. 2023-yil
3. "Xalqaro huquq" – T. Boboyev, B. Yusupov va boshqalar
4. Reuters. "UN rights office warns of summary killings and sexual violence in eastern Congo", 31 January 2025.
5. "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt (ICESCR)